

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA ONA TIMSOLI

Iroda Pardaeva Mamayunusovna

Ilmiy ish rahbari:

Xudayorova Marjona Qurdosh qizi

SamCHTI talabasi:

Abstract. This article describes the brilliant star of Uzbek prose, O'tkir Hashimov's image of the gem, the love, patience, contentment, endurance and faith of mothers. The works of our writer encourage us to realize the need to take care of our parents in time. Utkir Hoshimov expresses the image of a mother sincerely and impressively through simple life measures.

Key words: morality, mother, oriental woman, time, story, story, mother figure, "Mother", "Woman" concepts, motherhood feeling.

Аннотация. В данной статье описывается яркая звезда узбекской прозы, образ драгоценного камня О'ткира Гашимова, любви, терпения, довольства, выдержки и веры матери. Произведения нашей писательницы побуждают нас осознать необходимость заботы о своих. Родители во времени Откир Хошимов искренно и впечатляюще выражает образ матери через простые жизненные меры.

Ключевые слова: мораль, мать, восточная женщина, время, повесть, рассказ, фигура матери, концепты «Мать», «Женщина», чувство материнства.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek nasrchiligining yorqin yulduzi O'tkir Hoshimovning qakb gavhari tasviri, onalarning mehr-muhabbati, sabr-qanoati, bardoshi va iymoni tasvirlanganligi yoritilgan. Yozuvchimiz asarlari bizga validamizni o'z vaqtida asrab avaylashimiz zarurligini anglashga undaydi. O'tkir Hoshimov ona obrazini oddiy hayotiy o'lchovlar orqali samimiy va ta'sirli ifodalaydi.

Kalit so'zlar: axloq, ona, sharq ayoli, zamon, qissa, hikoya, ona siymosi, "Ona", "Ayol" konsepsiyalari, onalik tuyg'usi.

Onani e'zozlash, qadr-qimmatini o'rniga qo'yib, boshga toj kabi ko'tarish bizlarga ota-bobolardan merosdir. Bir buyuk inson aytganidek: "Bu olamda ulug' zot kim, desang, shubhasiz doim onam deyman". Ona ulug' zot bo'lish bilan birga, o'zida hayratli mo'jizalarni mujassam etgan sir-sinoatlarga boy insondir. Masalan, go'dak chinqirab yig'layapti. Uni atrofidagilar qancha harakat qilmasin tinchlantirmayaptilar. Bola na aldovga, na do'qqa ko'nadi. Yumushlardan bo'shagan onasi uni darhol bag'riga bosadi. Go'dak ona isini olishi bilan tinchiydi. Yana bir holat: bola kasal, issig'i baland, bir ahvolda yotibdi. Unga doktorning dori-darmonlari ham unchalik kor qilmayapti. Shunda ona alahsirayotgan farzandining peshonasiga mehr bilan haroratli kaftini qo'yadi. Bir pastdan so'ng bola orom ola boshlaydi. Ona bilan bog'liq bunday hayratli misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ona shu qadar ulug' zotki, u ko'zga ko'rinmas ulkan kuch bilan, mehr-muhabbat bilan faqat farzandlarini, yaqinlarini emas, balki butun boshli insoniyatni bag'riga bosib,

dardiga darmon bo'la oladi. Ona hamisha o'zida beqiyos kuch-qudrat topa oladigan noyob qudrat egasidir. Tarix sahifalaridan yaxshi bilamizki, onalar eng og'ir va qiyin davrlarda ham, qatag'on va qahatchilik yillaridan ham metin irodali va mehribon, jasoratli va samimiy, dovyurak va mehnatkash bo'lib, avvalo, jonidan ham aziz farzandlarini, tug'ilib o'sgan Vatanini asrab qolish uchun hayotini fido qilishdan aslo qaytmaganlar. Bunday ulug' onalar xotirasi oldida bosh egib, ularning ruhlariga hamisha duolar qilish insoniy burchimizdir. Odam bolasi ona tufayli bu yorug' jahonni ko'rish baxtiga muyassar va musharraf bo'ladi. Ona tufayli bu hayotning barcha lazzatlaridan bahramand bo'ladi. Ona tufayli dunyoning zavq-shavqiga, quvonchlariga ko'milib yuradi. Ona tufayli baxt-iqbolga erishadi. Ona tufayli umrini yaxshiliklarga, ezguliklarga, fidoyi ishlarga safarbar etadi. Ona tufayli umrini yaxshi va ezgu amallar bilan bezaydi. Har bir farzand, xoh u o'g'il bo'lsin, xoh u qiz bo'lsin eng avvalo, onasini rozi qilishga intilishi lozim. Ona baxti – farzandlar baxti, oila baxti, jamiyat baxtidir. Ona bu bebaho baxtni hech kimga, hech nimaga alishmaydi.

"Ona", "Ayol" siymolari dunyoning barcha millatlari hayotida eng ulug' va mo'tabar zotlar hisoblanib, xalqlarning adabiy hayotida asosiy g'oya va obraz shaklida gavdalanib kelinadi. Har bir millatda "Ona" obrazini, ayollik xususiyatlarini birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor bo'lsada, ayni paytada har bir xalqning ona siymosini boshqa xalqlardan undagi ichki va tashqi dunyosi, fe'l-atvori, tabiati va dunyoqarashi bilan ajralib turuvchi, farqli jihatlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Ona butun bir millat, xalqning shakllanishida, uning rivojlanishi va yoki zavol tutishida ta'minlaydigan, butun bir millatning namoyon bo'lishida alohida o'rin tutuvchi shaxs, siymodir. Turli manbalarda "Ona" va "Ayol" konsepsiyalariga turlicha ta'rif berilib kelingan. O'tkir Hoshimov ijodida ona timsoli xalqimizning milliy qadriyatlari, odatlari va ruhiy olamini yoritishda muhim o'rin tutadi. Uning asarlarida ona – mehribonlik, sabr-toqat, va rahm-shafqat manbai, oilaning tayanchi va farzandlar tarbiyasida beqiyos rol o'ynaydigan timsol sifatida tasvirlanadi. Hoshimov o'z asarlarida ona timsoli orqali o'zbek xalqining o'ziga xosligini, uning qadimiy an'analari va axloqiy qadriyatlarini ochib beradi. Hoshimovning "Dunyoning ishlari" kabi asarlarida ona qahramon timsoli, milliy xarakter va ruhiy dunyoni aks ettiradi. Asarda Ona obrazida aks etadigan kuchli vatanparvarlik, hayotiy saboqlar, sabr va mehr orqali xalqimizning tarbiyaviy qadriyatlari yuksak saviyada ifodalanadi. Hoshimovning asarlaridagi ona timsoli – bu nafaqat ona sifatida, balki xalqona donolik va insoniylikni o'zida mujassamlashtirgan ayol obrazidir. Hoshimov asarlarida ona timsoli faqat bir oilaga tegishli emas, balki butun bir xalq, millat uchun onalik ramziga aylangan. Bu obrazi orqali yozuvchi xalqona mehr, insoniylik, ota-on va bola o'rtasidagi o'zaro ishonch va hurmat rishtalarini ko'rsatadi. "Ona – Vatan" tushunchasini o'zaro bog'lab, milliy ruhi, o'zligini anglash, kelajak avlodga o'tadigan milliy merosga urg'u beradi. Hoshimovning ijodida ona timsoli, avvalo, oddiy hayotiylikda, ya'ni zamonaviy ona sifatida namoyon bo'lsa-da, unda o'zbekona sabr-toqat, bardosh, va mehri mavjud. Bu obraz orqali yozuvchi ona va Vatan orasidagi chambarchas bog'liqlikni, onaning milliy tarbiya va qadriyatlarni avlodlardan avlodga

uzatishdagi rolini tasvirlaydi. Ona obrazining bunday teran va chuqur tasviri O'tkir Hoshimovning ijodiga xalq mehrini qozonganligi sabablaridan biridir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, psixolog V.Vagnerning fikricha, "Ijtimoiy-psixologik jihatdan onalik tuyg'usi insonning boshqa hayotiy talablari ya'ni, yashash, ovqatlanish bilan bir qatorda barobar turuvchi xislatdir" Shunday ekan onalik tuyg'usi dunyodagi eng oliy, beminnat va bebaho tuyg'udir. Adibning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridagi "Eng oliy tuyg'u" parchasida quyidagicha keltiriladi: "Bola emizib o'tirgan ayolga zimdan razm soling... Go'dagiga termulib bola emizayotgan onaning ko'zlariga sinchikla-a-ab tikiling... Eng oliy tuyg'u nimaligini shunda ko'rasiz! " Haqiqatdan ham dunyodagi eng oliy va bebaho tuyg'u bu onaning bolasiga bo'lgan samimiy va be'minnat mehr-muhabbati hisoblanadi. Inson yaralishi bilan Alloh unga ota-onasini in'om etadi. Har bir insonning kamolotida, voyaga yetishida, tarbiyasida onalarning hissasi kattadir. Onaning muhabbati bolaning hayotida ahamiyati katta. Bola voyaga yetgunga qadar ona uning suyanchi, himoyachisi hisoblanadi. Shu sababli ham buyuk asarlarning kattagina qismi aynan onalarga, ayollarga bag'ishlangan. Mana shunday asarlar sirasiga o'zbek adabiyotida yaratilgan "dunyoning ishlari" asarida ham onalar obrazini yanada go'zal so'zlar orqali yoritib berilgandir. O'tkir Hoshimov ushbu qissasida ona qiyofasi son sanoqsiz jilolari bilan tasavvuringizda namoyon bo'ladi. Muallif har bir hikoyasi yakunlanishi bilan oq ushbu hikoyaga kichik parchalar qoldirib ketadi.

"Dunyoning ishlari"da kashf qilingan ona obrazi O'tkir Hoshimovning keyingi asarlarida ham boshqa zamon va boshqa makonlarda o'quvchining ko'z o'ngida gavdalanadi". Ushbu qissa ijodkorning ona obrazini yaratishdagi eng yuqori cho'qqisi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. So'zimiz dalili deb Said Ahmadning "Ijod va jasorat" maqolasidagi ushbu fikrlarni keltirsak bo'ladi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi". "Ikki eshik orasi" romanidagi Qora amma, Robiya, Ra'no obrazlarining taqdirida ham zamonning ta'sirini ular hayotida ro'y bergan, o'zgarishlar va voqealar tasvirida ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimov o'z asarlarida davr va ona obrazi yuksak mahorat bilan tasvirlaydi. Odamlarning onaga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib qanday insonligini ko'rsatadi. Zamonning tartib-taomillari, ateistik targ'ibotning jamiyatning barcha jabhalariga qaratilganiga qaramasdan, insoniylik, insof singari yuksak xislatlarni saqlab qolish va uni o'z farzandlarining tarbiyasida qo'llashi aynan sharq ayolining fazilatlaridan biridir. Misol tariqasida, qissaning "Ikki afsona" hikoyasida muallif onasining barvaqt turib, ko'cha supurib ishlaganini eslab o'tadi. Unda vaqt o'tgani sari akasining onasiga shu ishni qilmasligi haqidagi so'zlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Insonning halol mehnat qilib, peshona teri bilan hayot kechirishi dindan xabardorlik sifatida onaning har qanday halol mehnatning aybi yo'qligi haqidagi so'zlari bilan ta'riflanadi. Ushbu holatning alohida e'tiborga sazovor jihati shundaki, onaning halol luqma bilan farzandlarining qornini to'q, ustini but tutishi, o'zidagi halovatning mavjudligi, uning o'z mehnati bilan

(eng oddiy ish bo'lsa-da) g'ururlanishi va insofidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, ijtimoiy-psixologik jihatdan onalik tuyg'usi insonning boshqa hayotiy talablari (yashash, ovqatlanish va boshqa) bilan bir qatorda barobar turuvchi xislatdir. Muallifning "Gilam paypoq" hikoyasida, onaning deyarli yalangoyoq holatida bolasining umri, uning sog'lig'i uchun o'zining sog'lig'idan voz kechishga, kerak bo'lsa, uning o'rniga o'zi ajalga tik qarashga tayyorligidan buni yaqqol ko'rish mumkin. Tibbiyot nuqtai nazaridan qaralganda, og'ir homiladorlik holatlari yoki tug'ruq vaqtida onaning va bolaning hayotiga xavf bo'lgan holatlarda, deyarli barcha shifokorlar bolaning umridan voz kechgan holda onani qutqarishga bel bog'lashadi. Ushbu mantiqqa asosan, ona yana bola ko'rish mumkin, ammo bola onani qaytara olmaydi. Lekin, muallif hikoyasining mantig'i hech bir narsa ona hissiyotidan ustun emasligidan dalolat beradi. Hayotda onalarimizni quyoshga mengzashlari bejiz emas, quyosh o'z nurlarini yerga beminnat taratgani kabi ona ham farzandlariga va oilasiga o'z mehrini minnatsiz beradi. Novellada ona jigargo'shasidan doimo xavotirda yashaydi. Hatto olamni tark etganda ham farzandini o'z mehr nuridan bahramand etgisi kelishi asarda mohirlik bilan tasvirlangan. Darhaqiqat, qissada ona qiyofasi keng va to'laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko'zga yaqqol tashlanadi. Ona mavzusi O'tkir Hoshimov uchun navqiron va abadiy tugallanmas ilhom manbaidir. "Dunyoning ishlari" qissasi har bir inson vaqtida onasining qadriga yetishi va uning oldidagi burch hamda vazifalarini bajarish lozimligini eslatadi. Yo'qsa, vaqtlar o'tgandan so'ng afsus qilishi tayin, albatta. Ushbu asar onalarning kechinmalari, his-tuyg'ulari, go'zal xislatlarini ochib berish bilan birga, farzandlar uchun nasihat hamdir.

Ayol azaldan mehr-shafqat va sadoqat timsoli bo'lib kelgan. Ayol deganda ko'z o'ngimizda avvalo, ulug' va tabarruk ona siymosi gavdalanadi. Inson zoti borki, olamdagi barcha yaxshilik va ezguliklarni, hayot siru-asrorlari va saboqlarini onaning mehr-u saxovati tufayli o'rganadi. Sharqda ayolga bo'lgan hurmat, ehtirom uni qadrlash, uni ko'klarga ko'tarish ota bobolarimizdan meros. Dunyoda "muqaddas" degan so'zga eng munosib zot ham – Onadir. Onani e'zozlash – bizning millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan fazilat. Chunki ayollarni qancha ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'zozlasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, onalarimiz berayotgan issiq tafti, ular berayotgan mehri har qanday narsadan ustundur. Farzandlarining kichik yutuqlaridan ham bir olam quvonch oladi, faxrlanadi. Shunday ekan farzandlar ham shunga munosib javob qaytarmog'i darkordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva O, Hakimov B. O'tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida badiiyfalsafiy xususiyatlari va Iltijo hikoyasi haqida/Oriental Renaissance:

Innovative, educational, natural and social science journal, 2022.



2. Abdushukirova G. O'tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasi badiiy tahlili/Proceedings of Global Technovation journal. 2020.

3. Atajonova A. O'tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida ayol va zamon qiyofasi/Central Asian Academic journal of scientific research, 2022. Hoshimov O'. Yarim asr daftari. – Toshkent 2004.

4. Atajonova A. O'tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida ayol va zamon qiyofasi/Central Asia Academic journal of scientific research, 20224. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. Qissa. – Toshkent.: O'qituvchi. 2018.

5. Hoshimov, O'. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent.: Sharq, 2009

6. Vagner, V. (2005). Qiyosiy psixologiya biologik asoslari. – Aql va idrok.

7. Aryes, F. (2019). Go'dak va eski tartib davridagi oilaviy hayot. Hayot bosqichlari bo'limi. – Nyu York: Fency.

8. Erkinjon o'g'li, L. A. (2024). SUYAK QADIG'I HOSIL BÒLISH PATOLOGIYALARNI ERTANGI DAVRLARDA ANIQLASH VA DAVOLASH. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 143-147.

